O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

13.00.02 – «Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo’yicha)» ixtisosligi bo’yicha malakaviy imtihon
D A S T U R I

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

Dastur 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo’yicha) ixtisosligi fanlari bo’yicha mutaxassislar talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarligi darajasini, uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy kontseptsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog’ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog’lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallagan darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo’lib, unda o’qitish metodikasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fannning o’ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim va ko’nikmalarga qo’yiladigan talabalar, imtihon savollaridan namunalar tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar: p.f.d., prof. B.S.Abdullayeva

DSc., dos. N.Sh.Ruzikulova

Taqrizchilar: p.f.d., prof. N.Isakulova,

p.f.d., prof. S.Bulatov

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

KIRISH

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi respublikamizda amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni to’laqonli ro’yobga chiqarishni ta’minlashning asosiy omillaridan biri bo’lib, uning o’ziga xosligi tadqiqotlar sohasi va yo’nalishining keng qamrovli ekanligi bilan belgilanadi. Mazkur ixtisoslik doirasida fanlarni o’qitish metodikasi va fanga oid muammolarning maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi, sinfdan va maktabdan tashqari ta’lim, oliy o’quv yurtidan keyingi ta’limga oid pedagogik muammolar hal etilishi ko’zda tutiladi. Mazkur ixtisoslik pedagogika fanining mamlakatimiz ta’lim tizimining bosqichlarida umumta’lim fanlari bo’yicha ta’limi mazmuni va metodikasini takomillashtirishning metodik asoslarini ishlab chiqishga oid muammolarni tadqiq etuvchi mustaqil soha bo’lib, mazkur ixtisoslik bo’yicha bajarilgan dissertatsiya ishlari Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimining taraqqiyotiga muayyan hissa qo’shishga qaratiladi. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi sohasiga oid dissertatsiyalarda jamiyatning ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalardagi o’zgarishlar talablari asosida umumta’lim fanlarini o’qitish mazmuni va metodikasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik asoslari, davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish metodologiyasi, aniq fanlarni o’qitish metodikasining qadimiy-tarixiy hamda zamonaviy mazmuni, metodlari, shakllari, vositalariga bag’ishlangan ilmiy-nazariy, amaliy-metodik muammolar tadqiq etiladi.

Fanning umumiy masalalari. Ta’lim ijtimoiy madaniyat fenomeni sifatida. Ta’lim va shaxs. Ta’lim va jamiyat, ta’lim, fan va madaniyat. Ta’lim umuminsoniy ijtimoiy tajribani egallash vositasi. Bilish nazariyasi ta’lim jarayonining metodologik asosi ekanligi. Ta’lim jarayoninig mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, qarama-qarshiliklari va mantiqiy tuzilmasi. Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillari. Asosiy didaktik nazariyalar: turli ta’lim sistemalarida shaxsni rivojlantirish nazariyalari; ta’lim maqsadlari va taksonomiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi; o’quv faoliyati nazariyasi va uning sub’ekti; mazmunli umumlashtirish nazariyasi; aqliy hatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi. Tushuntirish–illyustratsiyalash, muammoli, dasturlashtirilgan va kompyuterli ta’limni amalga oshirish nazariyalari. Ta’limning maorifiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funktsiyalari. Ta’lim jarayonining tuzilishi maqsadlari va natijalari.Ta’limning ikki tomonlama va shaxsga yo’naltirilgan harakatlari. O’qitish va o’qish jarayonini yagonaligi. Ta’limda "sub’ekt-sub’ekt" munosabatlarini amalga oshirish muammolari. Ta’lim va o’quvchilar o’quv imkoniyatlarining o’zaro mutanosibligi. Yosh psixologiyasi. O’quvchilarga individual yondoshish psixologiyasi. Darsning psixologik-pedagogik tahlili, o’quvchi shaxsi va guruh jamoasi. Ta’limni va mustaqil ta’limni amalga oshirish muammolari. O’qituvchi ta’lim jarayonining sub’ekti ekanligi.

Ta’lim jarayonida o’zaro muomala va dialogni amalga oshirish muammolari. Kasbiy pedagogik faoliyatining mohiyati. Pedagogik mahoratning komponentlari. O’qituvchi rahbar va tarbiyachi sifatida. Ta’limning psixologik qonuniyatlari va amalga oshirish mexanizmlari. Ta’lim olish jarayonining psixologik mohiyati va tuzilishi. O’zlashtirish jarayonining psixologiyasi. O’quvchilar o’quv faoliyatining motivatsiyasi. Ta’lim mazmuni va uning ilmiy asoslari. Tabiyat, jamiyat, inson, texnologiya va faoliyat usullari haqidagi bilimlar sistemasi. Umummadaniyatni va tajribani egallash va saqlashni ta’minlovchi intellektual va amaliy ko’nikma va malakalar tizimi. Ijodiy tajriba faoliyati. Ta’lim insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish. Ta’lim mazmunining milliylik va baynalmilallik jixatlari. Davlat ta’lim standartlari. Ta’lim mazmunini qurish va tanlash me’yorlari. Ta’lim mazmuni me’yorlovchi normativ hujjatlar. Ta’lim texnologiyalari va o’qitish metodlari. Ta’lim texnologiyalari oldindan qo’yilgan tashxislanuvchi aniq maqsadlar va etalon asosida ta’lim jarayoni oldindan loyihalashtirish va kutilayotgan natijani kafolotlovchi tartiblangan, tizimlashtirilgan hatti-harakatlar, amallar va muammolar majmuasi sifatida. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari. Rivojlantiruvchi, o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan moduli, muammoli, didaktik o’yinli, kontekstli, axborotli, tabaqalantirilgan, mul’tmediyali, o’z-o’zini rivojlantiruvchi texnologiyalar. Ta’lim nazariyasi va metodlari. Metod haqida tushuncha va uning tasnifi. Ta’limning og’zaki metodlari, o’qitishning induktiv va deduktiv metodlari. Reproduktiv va muammoli–izlanuvchan o’qitish metodlari. O’qitishda o’quvchini rag’batlantirish metodlari. O’qitishni va uning natijalarini nazorat qilish metodlari. O’qitish natijasini baholash psixologiyasi. Tashxislovchi, ogohlantiruvchi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari.Og’zaki, yozma va kompyuterli nazorat turlari. O’qituvchi va o’quvchi faoliyatini ,o’qitish natijalarini baholashda xolislik va “"formalizm”ga yo’l qo’ymaslik shart-sharoitlari. psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy muammolari. Ta’lim jarayonini tashkil etish modellari. Ta’lim muassasalarining tiplari. Ta’limda innovatsion jarayonlar. Mualliflik maktablari. O’qitishni dialogli, guruhli va ommaviy (frontal) tashkil etish shakllari. Sinf dars sistemasi. O’qitishni tashkil etishning boshqa shakllari: praktikumlar, seminarlar va fakultativlar. O’quvchilarning uy vazifasi bajarishlarini tashkil etish muammolari. Mustaqil ta’lim(eksternat); kunduzgi va sirtqi, masofaviy va boshqalar.

Ta’lim vositalari. Moddiy - ma’naviy madaniyat elementlari va predmetlari ta’lim vositasi sifatida. Ta’lim mazmunini didaktik vositalar orqali modellashtirish. Ta’lim vositalarning ko’pxilligi va uni sistemallashtirish. Dasturiy pedagogik vositalar. Ta’limda avdiovizual va kompyuter vositalar. Telekommunikatsion o’quv vositalari. Avtomatlashgan ish o’rni. Fanni o’qitish metodikasining predmeti. Fanni o’qitish metodikasining tarkibiy qismlari. Maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, oliy ta’lim va oliy ta’limdan tashqari, darsdan va sinfdan tashqari fan ta’limining maqsadlari. Fan ta’limida didaktik tamoyillarni amalga oshirish. Darslarida tarbiyalash va rivojlantirish: ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va ma’naviy tarbiya. Mantiqiy va obrazli tafakkurni rivojlantirish, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish. Maktab va

o’rta maxsus ta’lim muassalari matematika kursining mazmuni. Maktab va o’rta maxsus ta’lim fan kursining rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari.

Fanni o’qitishning metodlari va shakllari. Ularning tasnifi. Umumdidaktik va xususiy predmetli o’qitish metodlarini o’zaro aloqadorligi.

Fanni o’qitishning empirik metodlari: kuzatish, tajriba, o’lchash. Mantiqiy metodlari: taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraktsiyalash, konktretlashtirish, induktsiya va deduktsiya, analiz va sintez. Maktab va o’rta maxsus ta’lim fan kursining mantiqiy-didaktik tahlili. Ta’limning turli: frontal, jamoaviy, guruhli, individual shakllarining o’ziga xos xususiyatlari va o’zaro aloqadorligi.

Fanni o’qitishning tashkiliy shakllari. Dars va uning xususiyatlari. Asosiy dars tiplari. O’qituvchining darsga tayyorlanish tuzimi. O’quvchilar bilimi, ko’nikma va malakalarini tekshirish va baholash: nazorat ishlari, mustaqil ishlar, uy vazifalari, test sinovlari. Fanni o’qitishda asosiy vositalar: darsliklar, didaktik va metodik qo’llanmalari, jadvallar, modellar, sxemalar, kompyuter va boshqalar.

Fan xonasi. Fan bo’yicha sinfdan tashqari ishlar va ularning asosiy funktsiyalari. Fanning asosiy ko’rinishlari va tasnifi. To’garak, fakultativ mashg’ulotlari va olimpiadalar tashkil qilish.

Pedagogik tajribalarni o’tkazish. Fan o’qitish metodikasi bo’yicha ilmiy izlanishlarning o’tkazishning o’rni, ahamiyati va asosiy vazifalari. Pedagogik tajribani o’tkazishning asosiy bosqichlari: tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, ta’limiy, umumlashtiruvchi bosqichlari va boshqalar.

Matematik-statistik metodlardan foydalanib olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish.

Fanning xususiy masalalari.

O’zbek tili. Mazkur o’quv predmetining nazariy asoslarini; badiiy asarni lingvistik tahlil qilish va baholash mezonlarini bilishi; ona tili o’qitishda o’quvchilarning og’zaki va yozma nutq malakalarini o’stirishning shakl va usullarini; dars jarayoniga qo’shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jalb qila olishni, metodika sohasidagi yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalarini *bilishi kerak*;

o’zbek tili bo’yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta’limning mohiyati va printsiplarini o’zlashtirish; o’quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olish; ona tili darslarida milliy mafkura va mustaqillik g’oyasini targ’ib qila olish, darslarni tegishli shakl va usullariga ko’ra tashkil qilish, metodika sohasidagi yangiliklar bilan uzluksiz tanishib borish *ko’nikmalariga* ega bo’lishi kerak; mazkur fan yuzasidan namunali dars o’tish, turli tadbirlarni o’tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta’limning turli bosqichlarida o’quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta’lim va tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish, adabiy ta’limning turli shakl va usullariga doir fan yangiliklaridan muntazam foydalana olish, fan yutuqlarini amaliyotga bevosita tadbiq etish, iqtidorli talabalar bilan ularni intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish, adabiyot sohasidagi yangiliklarni dars va sinfdan tashqari mashg’ulotlarga jalb etish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish *malakalariga* ega bo’lishlari lozim; Mavzuga doir quyidagi mavzu va muammolarni yoritib berishlari kerak: O’zbek tili o’qitish metodikasi fan sifatida. O’zbek tili o’qitish metodikasi fanining umumnazariy masalalari, O‘zbekistonda ona tili o’qitish metodikasining tarixi; «O’zbek tili o’qitish metodikasi»ning boshqa fanlar (falsafa, tilshunoslik tsiklidagi fanlar, pedagogika, psixologiya, adabiyot, mantiq va b.) bilan aloqasi; O’zbek tili o’qitish metodlari, yangi pedagogik texnologiyalar; O’zbek tili ta’limida an’anaviy va noan’anviy usullar; O’zbek tili o’qituvchisiga qo’yiladigan talablar; Umumiy o’rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ona tili o’qitish kursining tarkibi va mazmuni; O’zbek tilidan izchil kursni o’rganish. Fonetikani o’rganishda so’z boyligini oshirish imkoniyatlari; Leksikologiyani o’rganishda so’z-ning ma’no darajalari ustida ishlash; Grammatikani o’qitish metodikasi.

O’zbek adabiyoti. Mazkur o’quv predmetining nazariy asoslarini; badiiy asarni estetik tahlil qilish va baholash mezonlarini; adabiyot o’qitishda o’quvchilarning og’zaki va yozma nutq malakalarini o’stirishning shakl va usullarini; dars jarayoniga qo’shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jalb qila olishni, metodika sohasidagi yangi

pedagogik hamda axborot texnologiyalarini *bilishi kerak*; o'zbek adabiyoti bo'yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'limning mohiyati va printsiplarini o'zlashtirish; o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olish; badiiy asarni mustaqil tahlil qila bilishi; adabiyot darslarida milliy mafkura va mustaqillik g'oyasini targ'ib qila olish, darslarni tegishli shakl va usullariga ko'ra tashkil qilish, metodika sohasidagi yangiliklar bilan uzluksiz tanishib borish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi kerak; ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish, adabiy ta'limning turli shakl va usullariga doir fan yangiliklaridan muntazam foydalana olish, fan yutuqlarini amaliyotga bevosita tadbiq etish, iqtidorli talabalar bilan ularni intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish, adabiyot sohasidagi yangiliklarni dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga jalb etish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish *malakalariga* ega bo'lishlari lozim. Imtihon topshiruvchilar adabiyot o'qitish metodikasiga doir quyidagi mavzu va muammolarni yoritib berishlari kerak: Adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida. Adabiyot o'qitishning metodlari; Metodika fanining shakllanishi va taraqqiyoti; Adabiyot dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalari. Adabiyot o'qituvchisi; Adabiy asarni tahlil qilish adabiyot o'qitishning asosi sifatida. Badiiy asar matnini o'rganish; Badiiy asarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish. Epik asarlarni o'rganish; Dramatik asarlar tahlili; Lirik asarlarni o'rganish; Ta'lim bosqichlarida adabiyot tarixi, adabiy nazariy tushunchalarni o'rganish; Badiiy asar tilini o'rganish. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirish yo'llari. Adabiyot darslarida ko'rgazmalilik. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.

Xorijiy tillar. CHet tilni amaliy egallash jahon miqyosida ro'y berayotgan globalizatsiya va integratsiya jarayonlarining muhim vositalaridan biridir. CHet tilni o'rgatish ilmiy asosga ega bo'lgan ta'lim metodikasini taqozo etadi. Mamlakatimizda chet til o'qitish metodikasida qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilib, ularning natijalari dastur, darslik, o'quv qo'llanma va maqola shakllarida bayon etilmoqda va bevosita amalda tatbiq qilinmoqda. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston chet tillar o'qitish metodikasi ilmiy maktabini yaratishga asos bo'ldi. O'zbek o'rta va oliy maktabida chet tillarni o'qitish metodikasidan fan doktori, fan nomzodlari Yetishib chiqdi va ular ilmiy maktabning salohiyatini ko'tarishda o'zlarining tadqiqot ishlari bilan fidoyilik ko'rsatishmoqda. CHet tillar o'qitish metodikasidan ilmiy-tadqiqot olib borishda jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi, jumladan, metodik terminlarning talqini, jahon chet tillar o'qitish metodikasida vujudga kelgan zamonaviy nazariyalarni aks ettiruvchi ilmiy adabiyotlarning kamligi, Yetuk mutaxassis olimlarning Yetarli emasligi va b.

Bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi talab qilinadi:

1. Ingliz tili amaliyoti (ingliz tili amaliy kursi, ingliz tili amaliy fonetikasi va ingliz tili amaliy grammatikasi).
2. Ingliz tili nazariyasi (ingliz tili nazariy fonetikasi, ingliz tili nazariy grammatikasi, ingliz tili leksikologiyasi, ingliz tili stilistikasi, ingliz tili tarixi, tarjima nazariyasi, mamlakatshunoslik, german filologiyasiga kirish).
3. Ingliz tili o'qitish metodikasi (chet til o'qitish metodikasi tarixi, O'zbekistonda chet til o'qitish tarixi, o'rta va oliy maktabda ingliz tili o'qitish metodikasi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida chet til o'qitish metodikasi, qiyosiy metodika, maxsus metodika–mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi).
4. Inglizzabon mamlakatlar adabiyoti (Angliya adabiyoti, AQSH va boshqa inglizzabon mamlakatlar adabiyoti, inglizzabon adabiyotning o'zbek tiliga tarjimasi).
5. Tilshunoslik (umumiy tilshunoslik, ingliz va ona tillari qiyosiy tipologiyasi, lingvistik tadqiqot asoslari).

Fanni o'zlashtirish bo'yicha topshiriqlar.

1. CHet til o'qitish metodikasi kursining maqsad va vazifalari.

Ilmiy tadqiqotning asosiy tushunchalari. Tadqiqotning mohiyati va xususiyatlari. Ilmiy-tadqiqot turlari: empirik, nazariy, empirik-nazariy tadqiqotlar. Ilmiy bilish shakllari: g'oya, dalil, gipoteza, ilmiy bashorat.

2. CHet til o'qitish metodikasining predmeti, undagi asosiy tushunchalar.

Metodika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Amaliy topshiriqlar**.** 1. Nutq faoliyati, uning turlari, til materiali, til texnikasi, chet til qoidasi, mashqlar sistemasi tushunchalarini izohlang. 2. So'rovnomaning maqsad va turlarini tushuntiring. 3. CHet til o'qitish metodikasining muayyan masalasiga doir eksperiment o'tkazishning loyiha rejasini tuzing. 4. CHet til o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi: ruhshunoslik, tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, madaniyatlararo muloqot, lingvomamlakatshunoslik, kognitologiya.

1. CHet til o'qitish metodikasining quyidagi fanlardan qanday ma'lumotlarni olishi va ulardan qay darajada foydalanishini izohlang:

a) psixologiya
b) ta'limshunoslik
v) tilshunoslik
g) psixolingvsitika
d) lingvokulturologiya
ye) lingvomamlakatshunoslik

2. Muayyan matnni tanlang va undagi lingvokulturologiya, lingvomamlakatshunoslikka oid ma'lumotlarni aniqlang.

3. CHet til o'qitish maqsadlari va mazmuni. CHet til ta'limi mazmunining tarkibiy qismlari. Til materialini o'rgatish mazmuni: leksika, grammatika, talaffuzni o'rgatish mazmuni. Mazkur sohaga oid bajarilgan asosiy ilmiy-tadqiqot ishlari va hal etilmagan muammolar.

4. Muayyan darsning maqsad va vazifalarini aniqlab bering.

5. CHet til ta'limi mazmuni va uning tarkibiy qismlarini farqlash bo'yicha metodikadagi turli yondashuv va fikrlarni izohlang.

6. CHet til o'qitish tarixi metodlari: tarjima, to'g'ri, aralash, ongli-qiyosiy metodlar. H.Palmer, M.Uest, F.Guen, G.Lozanov, R.Lado, CH.Friz, M.Valter, H.Suit, CH.Xendshin, K.Flagstad, E.Otto, F.Aronshteyn, P.Xegboldt, F.Klosse, A.Bolen, B.V.Belyayev metodlari.CHet til o'qitish zamonaviy metodlari.

7. CHet til o'qitish sistemasidagi metodlarning ikkitasini qiyoslang, ulardagi umumiylik va farq qiluvchi tomonlarni aniqlang.

8. CHet til o'qitishdagi tarixiy yo'nalishlarning farqini toping.

9. CHet til o'qitish printsiplari. Didaktik printsiplar.

10. CHet til o'qitish psixologik printsiplari. CHet til o'qitish metodikasi printsiplari.

Metodikaning asosiy printsiplari. Metodikaning xususiy printsiplari. CHet til o'qitishning maxsus printsiplari. Didaktik printsiplarning chet til o'qitish metodikasiga tatbiq etish xususiyatlarini izohlab bering. CHet til o'qitish metodikasi printsiplari mazmun-mohiyatini tushuntirib bering. CHet til o'qitish psixologik printsiplarining mohiyatini aniqlang. Til tajribasini hisobga olish va og'zaki nutqning ilgarilashi printsiplarini izohlab bering. CHet til o'qitish vositalari. Asosiy vositalar. Yordamchi vositalar. CHet til o'qitish vositalarini tasniflang. CHet til o'qitishda informatsion texnologiyadan foydalanishning mohiyatini aniqlab bering. CHet til o'qitish xususiy metodikasi. O'rta umumta'lim muassasalarida chet til o'qitish metodikasi.

Geografiya. Fanning maqsad va vazifalari. Geogrfiya o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi geografiya o'qitish metodikasining nazariy va metodologik muammolarini ochib berish hamda geografiya o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tadbiq etish yo'llarini aniqlashdan iboratdir.

Mazkur fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

- metodologiya, metod, o'qitish usuli tushunchalarini moxiyati va mazmunini ochib berish;
- ta'lim to'g'risidagi qonun, davlat ta'lim standartlari va o'quv fanlari dasturlari xaqida bilimlar berish;
- O'zbekiston ta'lim tizimi va unda geografiya ta'limining tutgan o'rnini ochib berish;
- Geografiya o'qitish metodikasining nazariy asoslarini rivojlanish tarixining asosiy qirralarini ochib berish;

- Geografiya o’qitish metodikasining tadqiqot usullari va ularning nazariy hamda metodologik asoslarini ochib berish;
- Geografiya ta’limining maqsadi va mazmunini ilmiy-nazariy asoslari xaqida bilimlar berish;
- o’qitish metodlari va ularni guruhlashtirishning nazariy va metodologik asoslarini ochib berish;
- geografiya darslari va ularga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqishning ilmiy asoslarini aniqlash;
- o’qitish vositalari va ularni guruhlashtirish hamda takomillashtirish muammolarini Yechish;
- dasturlar va darsliklar mazmunini ishlab chiqish;
- o’quvchilar va talabalar bilimlarini nazorat qilish va baxolash metodologiyasini ishlab chiqish;
- o’quvchilar va talabalar bilimlarini nazorat qilish va baholash metodologiyasini ishlab chiqish;
- geografiya ta’limida pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o’quv jarayonida qo’llashning nazariy, ilmiy hamda amaliy jixatlarini ishlab chiqish. Bilimga qo’yiladigan talablar**.** Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida ijtimoiy-gumanitar sohalardagi islohotlarning pirovard natijalari nimalardan iborat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvar kuni bo’lib o’tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” ma’ruzasi asosida).
- fanning tadqiqot usullari va metodologiyasi haqida;
- geografiya o’qitish metodikasining tarkibi va tuzilishi haqida;
- o’qitish usullari, geografiya darsi, o’qitish vositalari haqida;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalar xaqida;
- ta’lim jarayonini boshqarish va o’quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash xaqida;
- standartlar, dasturlar, darsliklar xaqida.
- ko’rsatmali metodda kartagrafik va statistik, materiallardan, tasvirli vositalardan foydalanish, geografik kuzatishlarni tashkil etish.
- amaliy metodlar orqali o’quvchilar bilan tajribalar o’tkazish, joylarda geografik o’lchov ishlarini olib borish, ijtimoiy foydali mehnatga ularni jalb etishning usullariga etibor qaratish.
- geografiya darsi tushunchasining mazmuni va mohiyati.
- o’qitish vositalari haqida tushuncha.
- Geografiya ta’limida sinfdan tashqari ishlar. Geografiya fan to’garagi, geografik maydoncha va uni tashkil etish, foydalanish metodologiyasi. Geografiyada ekskursiyaning o’rni. Geografiya olimpiadasi va uni o’tkazish. Geografik kecha, turli tadbirlarni tashkillashtirish, geografik navbatchi kartani yuritish, ularga o’quvchilarni jalb etish usullari.
- Geografiya ta’limida pedagogik texnologiyalarni qo’llash metod va vositalari.
- Umum ta’lim maktablarida, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarida va oliy o’quv yurtlarida geografiya ta’limi jarayonida O’quvchi-talabalrni bilimini baholash tizimi va uni nazorat qilishning shakl va usullari hamda ularni takomillashtirishning asosiy yo’nalishlari.

Biologiya. Uzluksiz biologik ta’limga qo’yiladigan talablar. Biologiyani o’qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan uzviy foydalanish. Biologiyani o’qitishda barkamol shaxsni voyaga Yetkazish muammolari. Biologiyani o’qitishda o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni voyaga Yetkazish yo’llari. Biologiyani o’qitishda o’quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko’nikmalarini tarkib toptirish. Biologiyani o’qitishda o’quv munozaralari va Keys texnologiyasidan foydalanish orqali ularda mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish.

O‘zbekistonda Ekologiya harakati dasturi va biologiyani o’qitishda mazkur masalalarni hal etish yo’llaridan foydalanish muammolari. Biologiyani o’qitishda o’quvchilarda ongli intizom, burch, ma’suliyatni tarkib toptirish muammolari. Biologiyani o’qitishda amaliy masalalarga e’tiborni qaratish: atrof-muhitni ko’kalamzorlashtirish, fanning xalq xo’jaligi tarmoqlarida tutgan

o’rnini yoritish, biologiyaning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o’rni, darsdan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, o’quvchilarni aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, estetik, ekologik, jismoniy, jinsiy, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda sog’lom turmush ko’nikmalarini tarkib toptirish masalalari. Bilimga qo’yiladigan talabalar. Biologiyani o’qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan uzviy foydalanish; Biologiyani o’qitishda barkamol shaxsni voyaga Yetkazish muammolari; Biologiyani o’qitishda o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni voyaga Yetkazish yo’llari; Biologiyani o’qitishda o’quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko’nikmalarini tarkib toptirish; Biologiyani o’qitishda o’quv munozaralari va Keys texnologiyasidan foydalanish orqali ularda mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish; O‘zbekistonda Ekologiya harakati dasturi va biologiyani o’qitishda mazkur masalalarni hal etish yo’llaridan foydalanish muammolari; Biologiyani o’qitishda o’quvchilarda ongli intizom, burch, ma’suliyatni tarkib toptirish muammolari; Biologiyani o’qitishda amaliy masalalar: atrof-muhitni ko’kalamzorlashtirish, atrof-muhitni ekologik holatini yaxshilash bo’yicha olib boriladigan ishlar mazmuni; Biologiya fanining xalq xo’jaligi tarmoqlarida tutgan o’rni;

Biologiyaning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o’rni, darsdan tashqari ishlarda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish; O’quvchilarni aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, estetik, jismoniy, jinsiy, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash masalalari; O’quvchilarni ekologik tarbiyalash mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari; O’quvchilarda sog’lom turmush ko’nikmalarini tarkib toptirish mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari.

Kimyo. Kimyo fanidan o’quv ishlarini tashkil etish. Dars-o’quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. Kimyo darslarining tiplari va turlari. Ma’ruza, seminar, muammoli, modulli, didaktik-o’yinli, labaratoriya darslari va amaliy mashg’ulotlarning o’ziga xos xususiyatlari. O’quv tarbiyaviy jarayonga tizimli yondashuvning mohiyati. Kimyo darslariga qo’yiladigan metodik talablar. Kimyo fani o’qituvchisi (kasbiy tayyorgarligi, ijodiy va ijtimoiy faolligi, ma’naviy-axloqiy sifatlari, g’oyaviy-siyosiy Yetukligi) ga qo’yiladigan umumiy talablar. Kimyo fanidan yillik-taqvim reja tuzish. Kimyo fanidan yillik mavzuli-taqvim reja tuzish. O’quv dasturidagi mavzular, o’quvchilarda asosiy kimyoviy tushunchalarni shakllantirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bo’yicha darslar tizimi ekanligi. Kimyo fanidan laboratoriya, amaliy va seminar mashg’ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o’rni. Laboratoriya va amaliy, seminar mashg’ulotlarning mazmuni, tuzilishi va ularni o’tkazish metodikasi. O’quvchilar bilish faoliyatini tashkil etish yo’llari. Kimyo fanini o’qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish. Kimyo fanini o’qitishda zamonaviy pedagogik (didaktik-o’yinli, hamkorlikda o’qitish, muammoli, modulli ta’lim) va axborot texnologiyalaridan foydalanish. Kimyo fanidan darsdan tashqari ishlar. Darsdan tashqari ishlar-o’quv ishlarini tashkil etishning zaruriy shakli. O’quv dasturiga muvofiq darsdan tashqari va maktab kimyo xonasida muayyan darsga mo’ljallangan o’quvchilarning individual va guruhli ishlarini tashkil etish. Uy vazifasi-o’quvchilarning mustaqil tahsilining asosi. O’quvchilarning mustaqil ishi va tahsilini tashkil etishning samarali yo’llari. Kimyoviy ekskursiyalarni tashkil etish va o’tkazish. Kimyoviy ekskursiyalarning maqsadi, vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o’rni. O’quv dasturlarida mo’ljallangan ekskursiyalarning mazmuni, tashkil etish va o’tkazish metodikasi. Tabiat, kimyoviy korxonalar qishloq xo’jaligi tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot institutlariga ekskursiyalarni tashkil etish va o’tkazish yo’llari. Ekskursiya materiallarini qayta ishlash va kimyo fani darslarida foydalanish. Kimyodan sinfdan tashqari mashg’ulotlar. Kimyo fanidan sinfdan tashqari mashg’ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati. Sinfdan tashqari mashg’ulotlarning turlari: o’quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan, guruhli va ommaviy mashg’ulotlar.

O’quvchilarning yakka tartibda ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlarini tashkil etish, kimyo xonasida mustaqil ravishda tajribalar va kuzatishlar o’tkazish, kuzatish kundaligini yuritishni o’rganish.

Kimyo fanidan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ishlar. Ko’rgazmali qurollar tayyorlash va butlash, ma’ruzalar tayyorlash ilmiy anjumanlar, xaftaliklar o’tkazish.

Kimyoviy to’garak ("Yosh kimyogar")ning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmuni va mashg’ulotlarni tashkil etish metodikasi.

Kimyo fanidan ommaviy mashg’ulotlarning maqsadi, vazifalari, mazmuni. Mavzuli kechalar, bayramlar va anjumanlar o’tkazish tartibi va ularda o’quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo’llari.

Fizika va astronomiya. Kinematika. Moddiy nuqta va moddiy nuqtalar sistemasining dinamikasi. Energiya, impuls va impuls momentining saqlanish qonuni. Qattiq jism mexanikasi. Qattiq jism aylanma harakati dinamikasi. Suyuqliklar va gazlar mexanikasi. Gidro va aerostatika. Nisbiylik nazariyasi elementlari. Jismlarning elestik xossalari. Mexanik tebranishlar va to’lqinlar. Butun Olam tortishish qonuni

Molekulyar fizika va termodinamika bo’limini o’qitish metodikasi: gazlar molekulyar-kinetik nazariyasining asosiy tenlamalari. Gaz qonunlari. Maksvell va boltsman taqsimoti. Barometrik formulalar. Gazlarda ko’chish xossalari. Molekulalarning o’rtacha erkin yugirish yo’li uzunligi. Termodinamikaning birinchi qonuni. Issiqlik sig’imi. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Entropiya. Real gazlar va suyuqliklar. Qattiq jismlarning issiqlik xossalari. Fazaviy o’tishlar.

Elektr va magnetizm bo’limini o’qitish metodikasi: Elektrostatika. kulon qonuni. Maydon kuchlanganligi va potentsiali. Elektr maydondagi o’tkazgichlar va dielektrlar. Elektr sig’imi. elektr maydon energiyasi. O’zgarmas elektr toki. om qonuni. kirxgof qoidalari. termoelektron emissiya va kontakt xodisalar. elektrolitlarda va gazlarda elektr toki. magnit maydoni. elektromagnit induktsiya

Optika bo’limini o’qitish metodikasi: yorug’lik interferentsiyasi. yorug’lik difraktsiyasi. geometrik optika. Fotometriya. yorug’likning qutblanishi. yorug’lik dispertsiyasi va uning yutilishi. yorug’likning sochilishi.

Atom va yadro fizikasi bo’limini o’qitish metodikasi: nurlanishning kvant xossalari. fotonning energiyasi. fotonning impulsi va massasi. yorug’likning bosimi. kompton effekti. moddaning to’lqin xossalari. atomning Rezerford –Bor modeli. qattiq jismlarning kvant xodisalari. Atom yadrosi fizikasi. Yadro tarkibi, Yadroning asosiy holat hususiyatlari, Radiaktivlik va nurlanish turlari, Yadroviy kuchlar, Katlam modeli, Yadro reaktsiyalari, Bo’linish, sintez va yadro reaktorlari Zarralar fizikasi bo’limini o’qitish metodikasi: Zarra va antizarralar, Fundamental o’zarota’sirlar va zarralar klassifikatsiyasi, Saqlanish qonunlari va simmetriya.

Matematika. Algebra va analiz asoslarini o’qitish metodikasi. Boshlang’ich sinflarda arifmetika–algebra va geometriya elementlarini o’qitish metodikasi. 5-6 sinflarda oddiy kasr, o’nli kasrlar algebra va geometriya elementlarini o’qitish metodikasi. Ushbu bosqichda matematika o’qitishning maqsadlari va vazifalari, asosiy mavzular va ularni o’qitish metodikasi. Maktabda va o’rta maxsus ta’lim muassasalarida son tushunchasini o’qitish muammolari. Natural va ratsional son tushunchalarini kiritish va o’qitish metodikasi, haqiqiy va kompleks son tushunchalarini kiritish va o’qitish metodikasi.

Maktab va o’rta ta’lim muassalari matematika kursida ayniy almashtirishlarning o’rni va ahamiyati.

Ayniy almashtirishning asosiy ko’rinishlari. Ayniy almashtirish bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish.

Maktab va o’rta maxsus ta’lim matematika kursida tenglama va tengsizliklar, uning o’rni va ahamiyati. Tenglama va tengsizlik tushunchalarini turlicha ta’riflashlar va bu tushunchalarni kiritish va shakllantirish muammolari. Teng kuchli tenglamalar va tengsizliklar hamda ularning asosiy xossalarini o’qitish metodikasi. Tenglama va tengsizliklarni Yechishning umumiy va xususiy usullari. Masalalarni tenglamalar tuzib o’qishga o’rgatish metodikasi.

Maktab va o’rta maxsus ta’lim muassasalarida funktsiya mavzusini o’rgatishning maqsad va vazifalari, mazmuni. Funktsiya tushunchasini kiritish va shakllantirish metodikasi. Funktsiya tushunchasini o’qitishni metodik tizimi. Elementar funktsiyalarni o’qitish metodikasi. Nostandart funktsiyalarni o’qitish metodikasi.

Sonli ketma-ketliklar, sonli ketma-ketliklarning limiti tushunchasini o’qitish metodikasi. Funktsiyaning limiti va uzluksizligini o’qitish metodikasi. Trigonometrik, ko’rsatkichli va logorifmik funktsiyalarni o’rgatish metodikasi. Teskari funktsiya tushunchasini kiritish va o’qitish

metodikasi. Hosila tushunchasini kiritish va shakllantirish metodikasi. Hosilaning tadbiqlarini o'qitish metodikasi. Boshlang'ich funktsiya va aniqmas integral tushunchasini kiritish va o'qitish metodikasi. Aniq integral tushunchasini kiritish va uning tadbiqlarini o'qitish metodikasi.

Ehtimollar nazariyasining asosiy elementlarini kiritish va o'qitish metodikasi.

Axborotni yig'ish va qayta ishlash: sxemalar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar. Kombinatorika elementlarini o'qitish metodikasi. Tasodifiy xodisalar, muqarrar va yuz bermaydigan xodisalar, xodisalar chastotasi kabilarni o'qitish metodikasi.

Geometriya. Boshlang'ich sinflarda geometriya elementlari va ularni o'qitishning maqsad va vazifalari. U bosqichda geometrik materiallarni o'qitish metodikasi.

Geometriyani aksiomatik qurish geometrik figuralarni o'qitish metodikasi. Ko'pburchaklarni o'qitish metodikasi uchburchaklar va uchburchaklar tengligi tushunchasini o'qitish metodikasi turtburchaklarni o'qitish metodikasi. Muntazam ko'pburchaklar va ularni o'qitish metodikasi. Aylana va doira. Aylanalarning o'zaro vaziyatlari, tekislikda to'g'ri chiziq va aylananing o'zaro vaziyatlari mavzularini o'qitish metodikasi. Nuqtaning geometrik o'rni. Yasashga doir masalalarni o'qitish metodikasi.

Tekislikni geometrik almashtirishlar mavzusini o'qitish metodikasi. Harakat: markaziy simmetriya, o'q simmetriyasi , n-chi tartibli simmetriya parallel ko'chirish, o'xshash almashtirishlarni o'qitish metodikasi.

Tekislikda koordinatalar va vektorlar mavzusini o'qitish metodikasi. To'g'ri burchakli koordinatalar sistemasi, koordinatalar bilan berilgan vektorlar ustida amallar, vektorlarning skalyar ko'paytmasi, aylanma va to'g'ri chiziqning tenglamalarini o'qitish metodikasi.

Geometrik kattaliklarni o'lchash. Kesmaning uzunligini ko'pburchaklarning va doiraning yuzasini o'lchash mavzularini o'qitish metodikasi.

Stereometriyaning asosiy tushunchalari va ularning xossalari. Stereometriyaning dastlabki teoremalarini isbotlashga o'rgatish.

Fazoda koordinatalar va vektorlar. Fazoda to'g'ri chiziqli koordinatalar mavzusini o'qitish metodikasi. Fazoda vektorlar mavzusini o'qitish metodikasi.

Fazoda parallellik va perpendikulyarlikni o'rganish metodikasi. Tekislik va to'g'ri chiziqlarning o'zaro joylashuvi. Tekislik va to'g'ri chiziqlarning parallellik va perpendikulyarlik belgilari. Fazoviy figuralarni o'rganish metodikasi: ko'pyoqlilar va aylanma jismlarni o'rgatish metodikasi.

Fazoviy jismlarning hajmi va sirti formulalarini keltirib chiqarishga o'rgatish metodikasi.

Informatika. Fanning mazmuni. Informatika, axborot texnologiyalari. Shaxsiy kompyuterlar. Axborot. Axborotli jarayonlar. Axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatishning vositalari. Axborotni o'lchash va tasvirlash. Axborotning sintaktik, semantik va pragmatik o'lchovlari. Informatika fani, uning maqsadi va vazifalari. Axborot texnologiyalari. Zamonaviy axborot texnologiyalari turlari, tarkibi va ta'minoti. Jamiyatni axborotlashtirish. Ta'limni axborotlashtirish. Axborot resurslari. Jamiyatning axborot potentsiali. Axborot bozori. Jamiyatni axborotlashtirishga oid me'yoriy xujjatlar. Hisoblash texnikasining rivojlanish tarixi va avlodlari Shaxsiy kompyuterlar va ularning turlari. Kompyuterning tuzilishi va atrof qurilmalari. Shaxsiy kompyuter tuzilishining axboriy-mantiqiy asoslari. Shaxsiy kompyuterlarning funktsional-tuzilmaviy tashkil etilishi. Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari. Axborot texnologiyalari va ularning asosiy elementlari.Axborot texnologiyalarining turlari va ulardan turli soxalarda foydalanish imkoniyatlari. Kompyuter texnologiyalariga xizmat ko'rsatish.Kompyuter viruslari va ulardan ximoyalanish.Arxivlashtirish dasturlari: fayllarni arxivlashtirish xaqida umumiy ma'lumot, RAR va ZIP arxivator dasturlar. Antivirus dasturiy vositalar: kompyuter viruslarining xarakteristikalari, viruslarni aniqlash va ulardan ximoya qilish dasturlari. Multimedia vositalari. Disklarga xizmat ko'rsatuvchi dasturlar: shikastlangan fayllar va disklarni tiklash, disklarni fragmentatsiyasini bekor qilish, ularning ishini tezlashtirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari: bir tildan ikkinchi tilga o'girish texnologiyalari, skanerlash texnologiyasi va boshqalar. Kompyuter tarmoqlari xaqida tushuncha. Maxalliy, mintaqaviy va global kompyuter tarmoqlari.Internet global tarmog'i. Adreslash tizimi. Ma'lumotlarni uzatishni tashkil qilish usullari. Internet xizmatlari. Internet

Exploler va unda ishlash asoslari. Elektron pochta. Outlook Express bilan ishlash. Tele va videokonferentsiyalar. Ularni tashkil etish asoslari va ta’minoti.

Matematik va kompyuterli modellashtirish asoslari. Matematik modellashtirish tushunchasi. EHM da masalalarni taqriban Yechish usullari xaqida tushuncha. Xatoliklar, xatoliklar. arifmetikasi. Xatoliklarni aniqlashda differentsial hisobni qo’llash. Algebraik va transtsendant tenglamalarni taqribiy Yechish usullari. Vatar, urinma va oddiy iteratsiya usullari, uning yaqinlashish shartlari. Yechimning xatoligini baxolash. Tenglamalar sistemasini Yechish uchun Gauss usuli. Uning algoritmi. Kvadrat ildizlar va iteratsiya. usullari. Tenglamalar sistemasi uchun iteratsiya usuli, yaqinlashishning Yetarli shartlari. Interpolyatsiya bosh masalasining qo’yilishi, uning geometrik interpretatsiyasi. Lagranj interpolyatsion formulasi. Xatolikni baxolash. Interpolyatsion formulaning yagonaligi. Nyutonning I- va II- interpolyatsion formulalari. Xatolikni baxolash. Sonli differentsiallash. Lagranj va Nyuton ko’pxadlarini differentsiallash. Xatoliklarni baxolash. Aniq integralni taqriban xisoblash formulalari. Aniqlikni baxolash.Funktsiya xosilasiga ko’ra Yechilgan birinchi tartibli oddiy differentsial tenglamalar uchun Koshi masalasini taqriban Yechish. Eyler va Runge-Kutta usullari. Taqribiy Yechimning geometrik ifodasi. Matematik dasturlash fani. Chiziqli dasturlash masalalarining qo’yilishi va matematik modellari. Chiziqli dasturlash masalasining geometrik talqini. Chiziqli dasturlash masalasini Yechishning grafik usuli. Simpleks usul. Boshlang’ich bazisni topish. Simpleks jadvallar usuli. Sun’iy bazis usuli. Chiziqli dasturlashning o’zaro ikki yoqlama masalalari va ularning matematik modellari. O’zaro ikki yoqlama simpleks-usul. Transport masalasi va uni Yechish usullari. Shimoliy - g’arb burchak va potentsiallar usullari.Chiziqsiz dasturlash masalasining qo’yilishi va matematik modellari.Shartli va shartsiz minimallash. Lagranjning aniqmas ko’paytuvchilar usuli. Gradiyent usullar xaqida tushuncha.

Texnologiya fani. Mazkur ixtisoslik doirasida texnologiya fani va kasb tanlashga yo’llash, kasb ta’limiga oid muammolarning maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’limning bakalavriat va magistratura bosqichlari, shuningdek kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, sinfdan va maktabdan tashqari ta’limga oid pedagogik muammolar hal etilishi ko’zda tutiladi.

Mazkur ixtisoslik pedagogika fanining mamlakatimiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida texnologiya fani, kasb tanlashga yo’llash va kasb ta’limi mazmuni va metodikasini takomillashtirishning didaktik asoslarini ishlab chiqishga oid muammolarni tadqiq etuvchi mustaqil soha bo’lib, mazkur ixtisoslik bo’yicha bajarilgan dissertatsiya ishlari Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimining taraqqiyotiga muayyan hissa qo’shishga qaratiladi.

Texnologiya fani nazariyasi va metodikasi ixtisosligi sohasiga oid dissertatsiyalarda jamiyatning ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalardagi o’zgarishlar talablari asosida texnologiya fani, kasb tanlashga yo’llash va kasb ta’limi mazmuni va metodikasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, didaktik asoslari, davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish metodologiyasi, texnologiya fani metodikasining qadimiy-tarixiy hamda zamonaviy mazmuni, metodikasi, shakllari, vositalariga bag’ishlangan ilmiy-nazariy, amaliy-metodik muammolar tadqiq etiladi.

Mazkur ixtisoslik doirasida bajarilgan dissertatsiyalar respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimida o’quvchi-yoshlarga texnologiya fani berish va ularni kasb tanlashga yo’llashni mazmuni va metodikasini jamiyatning ijtimoiy buyurtmasiga muvofiq tarzda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tadqiqot sohalari o’zlashtirilishi lozim: O’quvchi-yoshlarni mustaqillik mafkurasi va milliy istiqlol g’oyalari asosida tarbiyalashda texnologiya fani mazmunini takomimllashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish. Texnologiya fani tizimiga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishning didaktik asoslarini ishlab chiqish. Texnologiya fanini o’qitishning didaktik printsiplari. Umumiy o’rta ta’lim maktablari, tashhis markazlari va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun texnologiya fani o’qituvchilari hamda kasb tanlashga yo’llash ishlari bo’yicha mutaxassislarni tayyorlash muammolari. Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlaridagi texnologiya fani mazmuni va metodikasini tadqiq etish. Uzluksiz ta’limning turli bosqichlari uchun o’quv-metodik adabiyotlar

majmuasini yaratishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish. Mehnat va kasb ta’limida uzviylik va uzluksizlik masalalari. Texnologiya fanidan davlat ta’lim standarti talablari asosida ta’lim muassasalari uchun o’quv-metodik majmualarni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Texnologiya fani o’qituvchilarining malakasini oshirish hamda amaliy-metodik bilimlarini uzluksiz takomillashtirib borish muammolari. O’quvchilarni umummehnat va umumkasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish hamda nazorat qilishning didaktik asoslari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mehnat, texnologiya va dizayn ta’limi, kasb tanlashga yo’llash ishlarining mazmuni, uning tashkiliy-pedagogik, metodik va ilmiy asoslarini tahlil va tadqiq qilish, bu boradagi ilg’or g’oyalar, fikrlar, usul hamda uslublarni Xalq ta’limi tizimi amaliyotida qo’llash muammolari. Texnologiya fani mazmuni va metodikasining pedagogik-psixologik, tibbiy-fiziologik asoslarini tadqiq etish. Texnologiya fani va kasbga yo’naltirish ishlari metodikasini takomillashtirishda fanlararo aloqalarning mohiyati va ahamiyati. Texnologiya fani va kasb-hunarga yo’naltirish ishlarining tarixiy rivojlanish xususiyatlari va milliy qadriyatlarimizdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Barkamol shaxs tarbiyasida texnologiya fani va kasbga yo’naltirish ishlarini amalga oshirishning ilmiy-metodik asoslari. Texnologiya fani jarayonida ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini tadqiq etish. O’quvchilarning texnik ijodkorlik faoliyatini, konstruktorlik-texnologik bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari. Texnologiya fanidan sinfdan hamda maktabdan tashqari ta’lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish.

Tarix. Tarixni o’qitish ta’limga qo’yiladigan talablar. Tarixni o’qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan uzviy foydalanish. Tarixni o’qitishda barkamol shaxsni voyaga Yetkazish muammolari. Tarixni o’qitishda o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni voyaga Yetkazish yo’llari. Biologiyani o’qitishda o’quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko’nikmalarini tarkib toptirish. Tarixni o’qitishda o’quv munozaralari va Keys texnologiyasidan foydalanish orqali ularda mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish. O‘zbekistonda davlatchilik muammolari va tarixni o’qitishda mazkur masalalarni hal etish yo’llaridan foydalanish muammolari. Tarixni o’qitishda o’quvchilarda ongli intizom, burch, ma’suliyatni tarkib toptirish muammolari. Tarixni o’qitishda etnografik masalalarga e’tiborni qaratish: fanni kasbga yo’naltirib o’qitish, tarixning mamlakat ijtimoiy hayotini rivojlantirishda tutgan o’rni, darsdan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, o’quvchilarni aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, estetik, ekologik, jismoniy, jinsiy, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda sog’lom turmush ko’nikmalarini tarkib toptirish masalalari. - tarixiy jarayonlardagi taraqqiyot va inqirozlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sabablari va oqibatlarini ochib bera olish; Vatan tushunchasining keng ma’nosi, hozirgi O‘zbekiston hududidan tashqari kengroq mintaqaviy Yerlarning, ya’ni butun Markaziy Osiyo, Xurosonning tarixiy madaniy mintaqa sifatida umumiy Vatanimiz ekanligini asoslash; davlatchilik tarixidagi ijtimoiy institutlarning yuzaga kelishi qonuniyatlari turli bosqichlarda shaxs, jamiyat, davlatga oqilona va adolatli rahbarlik qilishning o’rnini tushuntira bilish; tarixiy bosqichlarda ruy bergan ichki iqtisodiy, siyosiy va harbiy munosabatlarni yoritib berish; tarixiy jarayonlar davomida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma’naviy, madaniy va ma’rifiy ehtiyojlarning uzviy bog’liqligi, har bir bosqichning o’z mazmuni va mohiyatiga ko’ra shakllangan ma’naviy, mafkuraviy tizim bo’lishi lozimligini ko’rsata bilish; tarixiy bosqichlarda yuz bergan tanazzul, parokandalik va davlat boshqaruvidagi nuqsonlar va oxir-oqibat salbiy holatlarni vujudga kelganligini yorita bilish va xulosalar chiqara olish; istiqlol davri davlatchilik tariximizdagi yangi bosqich ekanligini, hozirgi zamon hamjamiyatida O‘zbekistonning tutgan mavqeini aniq idrok eta olish; o’zbek dalatchiligi tarixi borasidagi bilimlardan ma’naviy hayotimiz, davlatimizning ichki va tashqi munosabatlar doirasida amalda foydalana bilish masalasini yorita bilish; O‘zbekiston tarixiga oid adabiyotlar bilan tanishligi, ular yordamida erkin fikr yurita bilish; O‘zbekiston tarixining eng muhim manbalari haqida tasavvur va bilimlarga ega bo’lish, ulardan yozma ishda foydalana olish kabilar talab etiladi.

Matematik modellashtirish masalalari. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi fanlri bo’yicha olib boriladigan tadqiqotlarda matematik modellashtirish va matematik statistikaning

fundamental masalalari va metodik ta’minoti. Kompyuyer va matematik moddallashtirish asoslari va uning o’ziga xosligi. Fanlarni o’qitishda hisoblash eksperementlarini shakllantirish va tashkil etish usulari. Matematik moddellashtirish va hisoblashda loyihalash usullari. Matematik modellashtirishning asosiy printsiplari va klassifikatsiyasi. Fanlarni o’qitishda kompyuter diagnostikasi va imtiatsiyasidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari. Ehtimolar nazariyasi. Statistikada tanlov usuli. Pedagogik tadqiqotlar formulasi. Pedagogik statistikaning asosiy parametrlari. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi fanlri bo’yicha sohasidagi tajriba-sinov dasturi. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi fanlri bo’yicha ta’limda matematik dasturlash usullari.

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha imtihon savollari:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuniga ko’ra “davlat akkreditatsiyasi”, “davlat ta’lim standartlari”, “davlat ta’lim talablari”, “kompleks davlat akkreditatsiyasi”, “ maxsus davlat akkreditatsiyasi” tushunchalarni izohlang.
2. “Malaka”, “mutaxassislik”, “tarbiya”, “ta’lim”, “ta’lim dasturi” va “ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari” tushunchalarini ta’lim to’g’risidagi meyoriy xujjatlar asosida tavsiflang.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmon va Qarorlaridagi ustuvor vazifalarni tasniflang.
4. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplarni meyoriy asoslarga va pedagogik jihatlarga ko’ra solishtirma tahlil qiling.
5. Ta’limning ijtimoiy-madaniy fenome sifatida talqinini ochib bering
6. Ta’lim va shaxs, ta’lim va jamiyat, ta’lim, fan va madaniyatning o’zaro ta’sir xususiyatlarini ochib bering.
7. Ta’limning umuminsoniy ijtimoiy tajribani egallash vositasi sifatida imkoniyatlarini asoslang.
8. Bilish nazariyasi ta’lim jarayonining metodologik asosi ekanligiga doir paradigmalarni izohlab bering.
9. Ta’lim jarayonining mohiyatiga ta’sir etuvchi omillar (harakatlantiruvchi kuchlari, qarama-qarshiliklar) ni misollar yordamida ochib bering.
10. Asosiy didaktik nazariyalarda shaxsni rivojlantirish bo’yicha qarashlarni qiyosiy tavsiflang;
11. Ta’lim maqsadlarini shakllantirishda muhim yondashuv va tamoyillarni sanab o’ting va ularning ahamiyatini baholang.
12. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi bo’yicha asosiy pedagogik qarashlar, ularda o‘quv faoliyatini tashkil etish mazmunini ochib bering.
13. Muammoli ta’limning xususiyatlarini misollar misollar yordamida tushuntiring.
14. Raqamli ta’limni amalga oshirishda ta’lim subyektlari faoliyatini tavsiflang.
15. Ta’limning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini qiyosiy vavsiflang. Xalqaro tajribalardan misollar keltiring.
16. Ta’lim jarayonining natijalarini baholash bo’yicha ilmiy – metodologik qarashlarning ahamiyatini ochib bering.
17. Ta’limda shaxsga yo’naltirilgan yondashuvga ko’ra ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ochib bering. Misollar keltiring.
18. Ta’limda “subyekt-subyekt” munosabatlarini amalga oshirishda interfaol texnologiyalarni qo’llashni misollar yordamida ochib bering.
19. O‘qituvchining individual rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqishda zamonaviy tendensiyalarni ochib bering.
20. Mustaqil ta’limni amalga oshirish muammolari va ularga variativ yechimlarga namunalar keltiring.

21. O‘qituvchini ta’lim jarayoni subyekti sifatida faoliyatini izohlang.
22. Ta’lim jarayonida o‘zaro dialogni amalga oshirishda kasbiy pedagogik faoliyatning mohiyatini izohlang.
23. Pedagogik mahoratning komponentlarini misollar yordamida izohlang.
24. O‘qituvchi faoliyatini rahbar, tarbiyachi, fasilitator sifatida izohlang.
25. Ta’lim olish jarayonining umumdidaktik mohiyati va tuzilishishini tavsiflang.
26. O‘zlashtirish jarayonining pedagogik va psixologik jihatlarini qiyosiy tavsiflang.
27. O‘quvchilar o‘quv – biluv motivlarini rag’batlantirishning metodik jihatlarini asoslang.
28. Ilg’or xorijiy tajribalar asosida ta’lim mazmuni qiyosiy tavsiflang.
29. Tabiat, jamiyat, inson, texnologiya va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tizimida integratsiyaning ahamiyati asoslang.
30. Umummadaniy qadriyatlarga ko’ra bilimlar, amaliy tajribalarni egallashni ta’minlovchi intellektual hamda amaliy ko‘nikma va malakalar tizimini misollar yordamida izohlang.
31. Ijodiy faoliyat mazmunini va uning amaliy ahamiyatini ilmiy tadqiqot ishlaringiz doirasida tavsiflang.
32. Ta’limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirishda ta’sir qiluvchi omillarni qiyosiy tavsiflang.
33. Ta’lim mazmunining milliylik va baynalminallik jixatlari hamda ularning ahamiyatini ilmiy va ijtimoiy ahamiyatiga ko’ra baholang.
34. Ta’lim mazmunini qurishning meyoriy asoslarini yoritib bering.
35. Davlat ta’lim standartlari, o’quv dasturlarining mazmunini o’z mutaxassisligingiz doiradida ochib bering.
36. Ta’lim texnologiyalari va o‘qitish metodlarini misollar yordamida ahamiyatini izohlang.
37. Ta’lim texnologiyalarining oldindan qo‘yilgan tashxislanuvchi aniq maqsadlar asosida ta’lim jarayonini loyihalashtirish funksiyasini misollar yordamida ochib bering.
38. Rivojlantiruvchi va muammoli ta’lim texnologiyalarini xorijiy tajribalar asosida ochib bering.
39. Ta’lim metodlarining pedagogik imkoniyatlarini misollar yordamida ochib bering.
40. Ta’lim jarayonida og‘zaki metodlar mohohiyati va ulardan foydalanishning ahamiyatini misollar bilan tushuntiring.
41. Reproduktiv hamda muammoli–izlanuvchi o‘qitish metodlari o‘rtasidagi farqni misollar bilan tushuntiring.
42. O‘quvchini rag‘batlantirish metodlarining ta’lim samaradorligiga ta’sirini tushuntiring.
43. O‘qitish natijalarini nazorat qilish metodlariga misollar keltiring hamda ularning ahamioyatini baholang.
44. Ta’limda og‘zaki va yozma nazorat turlari va ularning pedagogik imkoniyatlarini qiyosiy tavsiflang.
45. O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati natijalarini baholashning psixologik-pedagogik diagnostikasi bo’yicha mavjud asosiy muammolar va ularning yechimlari bo’yicha xorij tajribalarini izohlang.
46. Ta’limda innovatsion jarayonlar va ularning ahamiyatini izohlang.
47. O‘qitishni individual, guruhli va ommaviy (frontal) tashkil etish shakllari hamda ularning didaktik ahamiyatini misollar yordamida izohlang.
48. Ta’lim turlarida didaktik jarayonning o’ziga xos xususiyatlarini o’z tadqiqot ishlaringiz doirasida yoritib bering.
49. Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning meyoriy asoslarini izohlang.
50. Qo‘shimcha ta’limda meyoriy va didaktik asoslarini, uning pedagogik imkoniyatlarini misollar yordamida ochib bering.

51. Ta’lim olish shakllarida didaktik jarayonning o’ziga xos xususiyatlarini o’z tadqiqot ishlaringiz doirasida yoritib bering.

52. Dual ta’limning nazariy va amaliy qismlari, ularning o’zaro bog’liqligini qiyosiy izohlang.

53. Eksternat tartibidagi ta’limda ta’lim jarayonining o’ziga xos xususiyatlarini o’z tadqiqot ishlaringiz doirasida yoritib bering.

54. Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyatni O‘zbekiston respublikasining ta’lim to‘g‘risida Qonuni hamda o’z faoliyatingiz doirasida yoritib bering.

55. O‘qitishni tashkil etishning turli shakllariga misollar keltiring va ularning ahamiyasini asoslang.

56. Zamonaviy ta’lim vositalarini tadbiq etishning pedagogik imkoniyatlarini misollar asosida ochib bering.

57. Fanni o‘qitish metodikasining predmetini mazmunini o’z mutaxassisligingiz doiradida ochib bering.

58. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda umummadaniy qadriyatlarga asoslangan ta’lim va tarbiya mohiyatini qiyosiy tavsiflang.

59. O‘qituvchi, o‘quvchi va mazmun (kontent) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qiling va misollar bilan ko‘rsating.

60. Klassik va zamonaviy ta’lim metodlarini taqqoslang va ularning amaliyotga ta’sirini misollar asosida izohlang.

61. Ta’lim turlarida o’z mutaxassisligingiz bo’yicha fanlar mazmuni ochib bering.

62. Umumdidaktik va xususiy o‘qitish metodlarini o‘zaro aloqadorligini ochib bering.

63. Fanni o‘qitishning empirik metodlarini misollar yordamida tavsiflang.

64. Mantiqiy va kognitiv metodlar sifatida taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, konktretlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez metodlarini yoritib bering.

65. Fanni o‘qitishning tashkiliy shakllarini misollar yordamida tushuntiring.

66. Dars va uning xususiyatlarini zamonaviy pedagogik qarashlar asosida ochib bering.

67. Ta’lim oluvchilar bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini tekshirish va baholashda nazorat ishlari, mustaqil ishlar, uy vazifalari, test sinovlarini ochib bering.

68. Fanni o‘qitishda asosiy vositalar sifatida darsliklar, didaktik va metodik qo‘llanmalari, jadvallar, modellar, axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini ochib bering.

69. To‘garak, fakultativ mashg‘ulotlari va olimpiadalar tashkil qilishning me’yoriy asoslarini, pedagogik ahamiyati va o’ziga xos jihatlarini yoritib bering.

70. Pedagogik tajribalarni o‘tkazish.

71. Fan o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni o‘tkazishning o‘rni, ahamiyati va asosiy vazifalarini ilmiy tadqiqot ishlaringiz doirasida izohlang.

72. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishning asosiy bosqichlari: tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, umumlashtiruvchi bosqichlar ilmiy tadqiqot ishlaringiz doirasida ochib bering.

73. Pedagogic tajriba-sinov ishlarida matematik-statistik metodlardan foydalanib olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlar bo’yicha o’z tadqiqotlaringiz doirasida izoh bering.

74. Umumdidaktik va xususiy yondashuvlar hamda ilmiy tadqiqotlar jarayonida ularga asoslanishning imkoniyatlarini ilmiy tadqiqot ishlaringiz doirasida tavsiflang.

75. Didaktik tamoyillarning fanni o‘qitish metodikasida pedagogik imkoniyatlarini ochib bering.

76. Fanni o‘qitish metodikasining tadqiqot usullari va ularning nazariy hamda metodologik asoslarini o’z tadqiqot ishlaringiz doirasida yoritib bering.

77. O‘qitish metodlari va ularni guruhlashtirishning nazariy va metodologik asoslarini yoritib bering.

78. Fanni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan uzviy foydalanishning ahamiyatini qiyosiy tavsiflang.

79. Fanni o‘qitishda shaxsga yo’naltirilgan ta’limning muammolarini ochib bering.

80. Fanni o‘qitishda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish didaktik jihatlarini ochib bering.

81. Fanni o‘qitishda o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish bo’yicha ilg’or tajribalardan misollar keltiring va ularni izoghlang.

82. Fanni o‘qitishda “Case study” texnologiyasidan foydalanish orqali o’quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning o’ziga xos jihatlarini bayon qiling. Keyas materiallariga namunalar keltiring.

83. Uzluksiz ta’limning turli bosqichlari uchun o‘quv-metodik adabiyotlar majmuasini yaratishning pedagogik va tashkiliy asoslarini yoritib bering.

84. Fanda uzviylik va uzluksizlik masalalari, spiralsimon rivojlanish bosqichlari haqida qiyosiy tavsif bering.

85. Davlat ta’lim standarti talablari asosida ta’lim muassasalari uchun o‘quv-metodik majmualarni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini yoritib bering.

86. Fan bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda amaliy-metodik bilimlarini uzluksiz takomillashtirib borish masalalarini meyoriy va o’quv-uslubiy jihatdan ochib bering.

87. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kasb tanlashga yo‘naltirish ishlarining mazmuni, uning tashkiliy-pedagogik, metodik va ilmiy asoslarining tahlilini keltiring.

88. Fan bo‘yicha laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘ulotlarning maqsadi, vazifalarini ochib bering.

89. Laboratoriya va amaliy, seminar mashg‘ulotlarning mazmuni, tuzilishi va ularni o‘tkazish metodikasini o’z mutaxassisligingiz doiradida ochib bering.

90. O‘quvchilar bilish faoliyatini faol tashkil etishda muhim omillarni misollar yordamida ochib bering.

91. Ilmiy tadqiqot ishlari va akademik yoki kasbiy maqsadlaringizning integratsiyanisi ochib bering.

92. Mavjud ta’lim tadqiqotlarga ko’ra qaysi muammolar doirasida tadqiqot ishlarini olib borish muhimligini ilmiy asoslang.

93. Blum taksonomiyasini ochib bering.

94. Summativ va formativ baholashni o’zaro qiyosiy tavsiflang.

95. O‘quv tadqiqotlarida qanday tadqiqot usullaridan foydalanish muhimligini o’z tadqiqotlaringiz doirasida izoh bering.

96. Zamonaviy ta’lim tendensiyalari va ularning ahamiyatini ochib bering.

97. Ta’lim sohasidagi tadqiqotlarning hozirgi global muammolari yoki tendensiyalari (masalan, raqamli ta’lim, inklyuzivlik, tenglik, ta’limda sun’iy intellekt) da sun'iy intellektning o’rnini ochib bering.

98. O’z tadqiqot ishlaringizning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga mosligini izohlang.

99. Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning imkoniyatlari va xavflari qiyosiy baholang.

100. Shaxsning ijtimoiy, intellektual va axloqiy rivojlanishini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qiling va misollar bilan ko‘rsating.

101. Faol o‘quv faoliyatini tashkil etishning metodik jihatlarini sharhlang va misol keltiring.

102. Raqamli texnologiyalar va gibrid o‘qitish muhitining pedagogik samaradorligini tahlil qiling va misollar bilan izohlang.

103. Ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil etishning ilmiy asoslarini misollar bilan izohlang.

104. Individual rivojlanishga yo‘naltirilgan pedagogik muhitni yaratishning samaradorligini baholang.

105. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan asosiy pedagogik metodlarni ilmiy tahlil qiling va ularning samaradorligini misollar asosida izohlang.

106. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (masalan, loyiha asosidagi o‘qitish, flipped classroom, virtual laboratoriyalar) ta’lim sifatiga qanday ta’sir qilishi mumkinligini misollar asosida sharhlang.

107. O‘quv materiallarini modullarga bo‘lishning metodik asoslarini sharhlang va aniq misollar bilan tushuntiring.

108. Analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va analogiya metodlarini pedagogik jarayonda qo‘llashning ilmiy asoslarini izohlang.

109. Onlayn va oflayn komponentlarni birlashtirgan gibrid o‘qitish muhitining samarali metodik yondashuvlarini sharhlang va amaliy misollar bilan izohlab bering.

110. Refleksiya jarayonining ta’lim samaradorligiga ta’sirini ochib bering.

111. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv jarayonini loyihalash va baholash mazmunini amaliy misollar bilan tushuntiring.

112. Tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish, monitoring va baholashni ilmiy jihatdan sharhlang va misollar bilan izohlang.

113. Ta’lim oluvchilarda tayanch va fanga od kompetensiyalarini shakllantirishning metodik jihatlarini yoritib bering.

114. Ta’lim-tarbiya jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning zamonaviy o‘quvchi ehtiyojlari bilan muvofiqligini analitik misollar bilan tushuntiring.

115. Pedagogik jarayonda “ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘qitish” ning metodologik aspektlarini ochib bering va amaliy misollar asosida asoslab bering.

116. Ta’lim jarayonida metod, shakl va vositalarning integratsiyasini tashkil etish metodikasini real o‘quv jarayoni misolida tahlil qiling.

117. Ta’limda teskari aloqa (feedback) tizimini tashkil etishning metodik ahamiyatini tahlil qiling.

118. Gamifikatsiya usullarining didaktik samaradorligini tahlil qiling.

119. Raqamli ta’lim muhitida o‘qitish motivatsiyasini shakllantirishning metodik ahamiyatini misollar bilan izohlang.

120. Shaxsning ijtimoiy moslashuvini ta’minlovchi tarbiyaviy metodlarni tahlillar asosida izohlang.

121. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining metodik bosqichlarini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonini o’z tadqiqotlaringiz misolida tushuntiring.

122. O‘qitish metodlari tasnifining zamonaviy konseptual mazmunini ilmiy manbalar asosida asoslab bering.

123. Faol o‘qitish metodlari (muammoli, evristik, tadqiqot asosidagi)ning ilmiy asoslarini tahlil qiling va amaliy misollar bilan tushuntiring.

124. Loyiha asosida o‘qitish metodining (Project-Based Learning) bosqichlarini izohlab bering.

125. Tadqiqot asosida o‘qitish (Inquiry-Based Learning) metodining kognitiv afzalliklarini ilmiy manbalar asosida asoslab bering.

126. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarining (differensial, individuallashtirilgan) afzalliklarini misollar bilan tushuntiring.

127. Emosional intellektga asoslangan o‘qitish metodlarining samaradorligini misollar bilan tahlil qiling.

128. O‘qitish metodlarini tanlashda fan mazmuni, o‘quvchilarning ehtiyojlari va texnologik imkoniyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash masalalarini izohlang.

129. Interfaol metodlarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchining roli va funksional fazifalarini izohlang.

130. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlarida differensial yondashuvning metodik imkoniyatlarini ilmiy asosda tushuntiring.

Talabgor quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash mezonlari	Maks. ball
1. Fanni bilish darajasi	**30**
Asosiy nazariy bilimlar	15
Ixtisoslik bo‘yicha bilimlar	15
2. Tanqidiy fikrlash va tahlil	**25**
G‘oyalarni umumlashtira olish	13
Mantiqiy fikr va dalil keltirish	12
3. Nutq va taqdimot madaniyati	**20**
Tuzilishi va izchillik	10
Til va ifoda aniqligi	10
4. Savollarga javob berish sifati	**25**
Mazmun va aniqlik	15
Moslashuvchanlik va mulohaza	5
Xotirjamlik, professional yondashuv	5
UMUMIY BALL	**100**

FOYDALANILADIGAN ADABIYoTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‟lim to„g„risida”gi qonuni. – Toshkent O‘zbekiston, 2020 y
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, « O‘zbekiston », 2016 yil, 56 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta‟minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O„zbekiston», 2017 yil, 48 bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat‟iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo„lishi kerak” 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo„ljallanganiqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo„nalishlariga bag„ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‟ruzasi // Xalq so„zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.
5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo„yicha Harakatlar strategiyasi to„g„risida” gi 07.02.2017 yil. // №PF-4947-sonli Farmoni.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, « O‘zbekiston », 2017 yil, 488 bet.
7. Abdullayeva B., Toshpulatova M. va boshq. Matematika. 1-sinf o’quvchilari uchun ilg’or pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo’yicha metodik qo’llanma. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2014.

8. Abdullayeva B., Toshpulatova M. va boshq. Matematika. 2-sinf o'quvchilari uchun ilg'or pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2015.
9. Aripov M. Internet va elektron pochta asosolari.- T.; 2000 y.
10. Axmedov A., Tayloqov N. Informatika. Akademik litsey va kasb–hunar kollejlar uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston,2001. – 272 b.
11. Boltaboyev S.A., Ismoilova M.M. Kasb ta'limi metodikasi fanidan kurs ishlari. (metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2001.
12. Boltaboyev S.A., Magdiyev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma) -T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002.
13. Boltaboyev S.A., Sharipov SH.S., Mullaxmetov R.G., Ismoilova M.M. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). -T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002.
14. Vaxobov H., Zaynutdinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. T. "Universitet", 2001, 80 b.
15. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti talabalari uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1995.
16. Jalolov J.J.CHet til o'qitish metodikasi. – T.: O'kituvchi, 1996.
17. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (OO'YU uchun darslik). "Fan va texnologiya" 2005.
18. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum (OO'YU uchun o'quv qo'llanma) T.: "O'qituvchi" 2004.
19. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari (OO'YU uchun o'quv qo'llanma) T.: "Yangi asr avlodi" 2006.
20. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A.Tarbiyada innovatsion texnologiyalar-T.:Iste'dod. 2010 y.
21. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar-T.:Istedod. 2008 y.
22. Yo'ldoshev J.G'., Ta'lim yangilanish yo'lida. T.: O'qituvchi 2000.
23. Karimov N. Mirzayev T., Nazarov B., Normatov U., Qosimov B. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. T.: «Ma'naviyat» 2002.
24. Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o'zbek adabiyoti. 11-sinf uchun darslik. T.: «O'qituvchi». 2002.
25. Murodov SH., Ashirboyev A.O. Russko-uzbekskiy slovar po nachertatelnoy geometrii i chercheniyu. Toshkent, Izdatelstvo "Fan" AN RUz, 2008.
26. Nishonov M., Mamajonov SH., Xo'jayev V. «Kimyo o'qitish metodikasi» Toshkent O'qituvchi 2002.
27. Raxmatullayev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov SH.M. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, Elektron versiyasi 2008
28. Rixsiboyev T.. Muhandislik kompyuter grafikasini o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). ToshDTU, 2009.
29. Saidaliyev S. CHet til o'qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan: NamDU, 2004.
30. Saidaliyev S. (tarjimon). CHet til o'qitish metodlari. – Namangan: NamDU, 2005.
31. Sattarov T. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). – T.: TDYUI, 2003.
32. Tolipova J.O. va boshqalar. Botanika o'qitish metodikasi. 6-sinf. T., «O'zbekiston» 2003 yil – 128 bet
33. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: «Yangi asr avlodi». 2006
34. Uzaytirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Matematika.– T.: 2010.
35. Hoshimov O'., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2003.

36. G’ulomov A. va b. Ona tili o’qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2012.
37. Ivchenko G.I., Medvedev YU.I. Vvedeniye v matematicheskuyu statistiku: Uchebnik. M.: Izdatelstvo LKI, 2010. —600 s.
38. Abdushukurov A.A. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. Universitet, 2010 y., 169 b.
39. G’ulomov S.S.,Begalov B. Informatika va axborot texnologiyalari. Oliy o’quv yurti talabalari uchun darslik/Akademik S.S. G’ulomovning umumiy tahriri ostida.- T.: Fan, 2010.-704 b.
40. xttp:// www.multimedia.uz/
41. www.ziyonet.uz
42. www.inter-pedagogika.ru
43. www.scholar.urs.as.ru/courses/Technology/intro.html
44. www.pedsovet.org